

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA VOKAL VA JAMOА BO'LIB KUYLASH MALAKALARI MAZMUNI VA MOHIYATI

Rahmonova O.F.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat unversiteti

San'atshunoslik kafedraasi 4- bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Haqqulov Sh.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15220700>

Annotatsiya. Bugungi kunda musiqa tarbiyasi oldiga qo'yilgan vazifalar o'quvchi-yoshlarda barcha musiqiy qobiliyatlarini o'stirish, ijodiy intilishga rag'batlantirish, hayotga ongli va ijodiy munosatda bo'lish hususiyatlarini tarbiyalashni takozo etadi. Shu sababli bolalar bog'chasidan, umumta'lim maktablarida 1- sinfdan boshlab bolalarda eng avvalo musiqaga qiziqish uyg'otish, vokal va jamoa bo'lib kuylash malakalarini shakllantirish, milliy xalq qo'shiqlarini o'rgatish, musiqa asarlari tilini tushunish, musiqa asarlarini ongli idrok etish, unda emotsional, badiiy zavq olishga o'rgatish eng dolzarb vazifalardan qilib qo'yildi. Mazkur maqola bolalar musiqa va san'at maktablarida vokal va jamoa bo'lib kuylash malakalarini mazmun va mohiyati haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'z: musiqiy idrok, musiqiy dunyoqarash, ovoz kuchi, diapazoni, vokal, jamoa bo'lib kuylash, xor, repertuar.

Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir. Har bir insonni ma'naviy shakllanishida oilani, maktabni, jamiyatni ahamiyati katta. Chunki insonni insoniylik xususiyatlari jamiyatda tarkib topadi. Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyani ko'plab omillari qatori musiqa tarbiyasi alohida o'rin tutadi. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, insonni atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Musiqa inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, uni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy g'oyaviy tarbiyalashni muhim vositasidir. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va unga ma'naviy ozuqa beradi.

Tarbiyalash deganda har tomonlama yetuk, o'zida ahloqiy poklik, ma'naviy boylik va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan insonni yetishtirish nazarda tutiladi. Tarbiya tizimida musiqa san'ati yetakchi o'rinda turadi. Hozirgi kunda musiqa san'atni inson tarbiyasidagi roli ortib bormoqda. Yoshlarimizni ma'naviy yetuk, komil inson etib tarbiyalashda musiqa tarbiyasining roli shak-shubhasiz kattadir. Maktab yoshlarga bilim asoslarini singdiradi. U bolani ilmiy dunyoqarashining shakllanishi va mustahkamlanishi yo'lida asosiy poydevor bo'lib hizmat qiladi.

Shunday ekan umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida vokal va jamoa bo'lib kuylash malakalarini shakllantirishning asosiy maqsadi – o'quvchilarga musiqa san'atini go'zallik qonunlari asosida o'rganish malakasini singdirish va ularda musiqa madaniyatini tarkib toptirishdir. Boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyati darslari umumiy ta'limning axloqiy-estetik tarbiya berish tizimining ajralmas bir qismi bo'lib hisoblanadi. Shunga ko'ra 1-sinfdan boshlab darslarni izchil, tizimli va ilmiy asosda tashkil etilishi o'quvchi-yoshlarni ta'limning keyingi bo'g'inlariga ma'lum tayyorgarlik bilan borishlarini ta'minlaydi.

Darslarni to'g'ri tashkil etishning pedagogik, metodik jihatlarini unutmagan holda quyi sinflarda vokal va jamoa bo'lib kuylash malakalarini shakllantirish musiqa ta'limi va tarbiyasini tashkil etilishida o'quvchilarning yosh xususiyatlari bilan bog'liq psixologik va fiziologik

imkoniyatlari va xususiyatlarini hisobga olib ish tutish lozim bo'ladi. O'quvchilarni avvalo musiqa san'atiga, vokal va jamoa bo'lib kuylash malakalarini shakllantirishga musiqa darslariga qiziqтира olish, qiziqishlarini shakllantira olishga asosiy diqqat-e'tibor qaratiladi. Bu o'rinda kichik yoshdagi o'quvchilarining diqqatini turg'un bo'lmasligi, ya'ni o'quvchilar diqqatini bir narsadan ikkinchi narsaga tez o'tuvchi, o'zgaruvchan bo'lishligini hisobga olish kerak. Shuningdek bolalarni musiqiy dunyoqarashi, musiqiy idroki, ularning ovoz imkoniyatlari, ovoz kuchi, diapazoni kabilar bevosita fiziologik rivojlanish bilan bog'liq murakkab jarayonga asoslanishini unutmaslik kerak. O'quvchilarga jamoa bo'lib qo'shiq kuylash chog'ida vokal-xor malaklari ustida ish olib borganda bu jihatlarni doimiy ravishda e'tiborda tutish shartdir.

O'quvchilarni xotirasi yaxshi rivojlanmagan, ovoz apparatlari to'la shakllanmaganligi sababli ovoz pardalari nozik, kuchsiz bo'ladi. Shu bilan birga ular serharakat, o'yinga moyil, taqlidchan bo'ladi. O'quvchilar o'rganishi, tinglashi uchun repertuar tanlashda musiqaviy asarlar ana shu xususiyatlarni nazarga olgan holda mazmuni va mavzusi jihatdan xilma-xil bo'lmog'i lozim. Bu o'rinda musiqa o'qituvchisi har bir darsga puxta tayyorgarlik ko'rmog'i, ijodiy yondashmog'i shart.

Boshlang'ich sinflarda musiqa ta'lim va tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etilishi ko'proq dars faoliyatlarini o'z o'rnida tez-tez almashtirishni taqazo etadi. Chunki, musiqa darslarning besh asosiy faoliyat turlaridan musiqaga mos harakatlar bajarish va bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish, vokal va jamoa bo'lib kuylash malakalarini shakllantirish kabi faoliyatlar darslarni qiziqarli va mazmunli o'tishini ta'minlaydi.

Maktablarda musiqa o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirish kulami zamon talabiga javob bera oladigan barkamol inson qilib voyaga yetkazish. Maktabda musiqa darslarini o'qitishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarni musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishi va mehr-muhabbatini oshirish;
- musiqiy faoliyatlar jarayonida o'quvchilarni musiqiy qobiliyatlari musiqiy o'quvi, ovozi, diqqat-e'tibori va ijodkorlik his-tuyg'ularini o'stirish;
- musiqiy asarlarni badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida axloqiy estetik ruhda tarbiyalash;
- musiqa darslarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, mehnatga muhabbat, Vatan-ga muhabbat, kattalarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish.

Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish o'qituvchining kasbiy va pedagogik mahoratlariga bog'liq. Har qanday san'atkor ham, maktabda musiqa madaniyati darslarini olib borolmaydi. Buning uchun musiqa o'qituvchisi pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, musiqa o'qitish va metodikasi hamda o'z musiqiy kasbiy fanlarini puxta o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

Hozirga kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarini oldida har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni tarbiyalashdek ma'suliyatni vazifa turibdi. Bu vazifani bajarishda san'atning barcha turlari qatori musiqa ta'limning va tarbiyaning o'rne beqiyosdir. Maktab musiqa madaniyati darslarida bolalarga xos musiqa tinglash qo'shiq kuylash, vokal va jamoa bo'lib kuylash musiqa jo'rligida har xil harakatlar bajarish, bolalar cholg'u asboblarida chalish turi tadbirlarda qatnashish kabilar musiqaviy faoliyatni mazmunini tahlil etadi. Ayniqsa 1- sinfga qadam qo'ygan bolalarning quvnoq musiqalarning zavq-shavq bilan tinglashi, musiqa asboblarini qiziqib chalishi, qo'shiqlarni berilib ijro etishlari unda musiqaga bo'lgan qiziqishlarni tarbiyalash bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarning eng muhim qismlaridir. Musiqani faol ravishda tinglash o'quvchilarda o'ziga xos badiiy nafosatni hamda ijrochilik malakalarini shakllantiradi. Musiqa tinglaydigan so'ngi asari haqida o'quvchilarning suhbatlari o'zaro fikr almashuvlar juda katta

tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarda musiqadagi obrazlarni, uning g'oyaviy-badiiy mazmunini, musiqaning o'ziga xos ifodaviylik hususiyatlarini anglash, ya'ni musiqani ongli idrok etish malaka va ko'nikmalarni vujudga keltiradi, hamda shakllantirib beradi. Shuning uchun o'qituvchi tinglash va kuylash uchun asarlar tanlashda nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ish tutmog'i lozim bo'ladi. Asarlar o'quvchi bolalarga tushunarli va mavzu jihatdan rang-barang, bolalar dunyosiga yaqin bo'lmog'i lozim. O'qitish-o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati va bu jarayonga bolalarning ma'lumot olishi o'qib ko'nikma va malakasini egallashi, tarbiyalanib, rivojlanib borishi nazarda tutildi.

Musiq o'qituvchisining ko'p qirrali va murakkab faoliyat zaminida yosh avlodni odobli, e'tiborli qilib tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi.

O'qituvchining yuksak madaniyati, uning teran bilim doirasi, ta'lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi.

Bo'lajak musiq mutaxassislari yosh avlod ongiga yuksak tuyg'ularni singdirish ularda ona vatanga muhabbat, go'zallikka intilib yashash, uni asrash va yaratishga bo'lgan ishtiyoq uyg'otuvchi kasb egalari hisoblanadilar.

Musiq darsi boshqa fanlarga qaraganda ko'p qirrali va o'ziga xos tuzilishiga ega bo'lib, zamonaviy musiq o'qituvchilaridan yuksak professionallik mahorat, bilim, tashabbuskorlik, o'z ishiga sidqidildan yondashib ishlash, izlanuvchanlik, yangilik, talabchanlik o'ziga nisbatan hamda o'z kasbiga nisbatan yetarli bilim va malakaga ega bo'lishligini talab qiladi. Darsning sifat va samaradorligini oshirish, o'z ishiga ijodiy yondashgan holda zamonaviy texnologiyalardan foydalanib darsni tashkil qilishni ham musiq madaniyati darslarida vokal va jamoa bo'lib kuylashda yuqoridagilardan unumli foydalanish va ularga amal qila bilish ongli ravishda idrok etib borishlariga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Jahon pedagogikasi amaliyotida, Respublikamiz pedagogika ta'limi, xususan musiq madaniyati ta'limida juda boy va ijobiy ahamiyatga molik tajribalar, anglanmalar, metodlar to'plangan. Ularda musiq madaniyati darsining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqilgan holda mashg'ulotlarni qiziqarli, yuksak samaradorligini ta'minlashda xizmat qiluvchi pedagogik omillar, vositalar, shakllar, usullar va faoliyatlar mazmuni mujassamlashgan musiq pedagogikasi bo'yicha juda ko'plab ilmiy tadqiqodlar olib borilgan va ularga musiq darslarida o'qituvchilarni badiiy-estetik tarbiyalash, vokal va jamoa bo'lib kuylash malakalarini shakllantirish, ayrim mavzularni yangicha zamonaviy talab darajasida o'tish texnologiyalari, shuningdek, musiq tinglash va qo'shiq kuylash, musiq savodi bilan bog'lash gigantlik muammolar o'rganish kabilarni o'z ichiga olish zaruriydir. Bizga ma'lumki musiq mashg'ulotlari jarayonida amaliy faoliyatlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunki o'qituvchi har bir qo'shiqni ommaviy jihatdan yetarli darajada o'rgatishi tufayli darsga bo'lgan qiziqishi va intilishi yanada yuksaladi. Zeroki, o'quvchilar aynan nega shu dars faoliyatida ko'proq estetik zavq oladilar. Chunki qo'shiq kuyi, matni, mazmuni, mohiyati ma'lum tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak musiq mutaxassislari yosh avlod ongiga yuksak tuyg'ularni singdirish ularda ona Vatanga muhabbat, go'zallikka intilib yashash, uni asrash va yaratishga bo'lgan ishtiyoq uyg'otuvchi kasb egalari hisoblanadilar. Uning o'ziga xos dolzarbligi ham shundadir deb belgilaymiz. Musiq darslarini zamonaviy talablar darajasida tashkil qilish va uni to'laqonli samaradorlik kasb etishda o'quvchilar musiq madaniyatiga bo'lgan his-tuyg'ularini ongli idrok etib hamda unga amal qilib bajarishlari yetakchi omil bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi. Shularga asoslangan xolda musiq madaniyati darslari oldiga qo'yilgan har-bir muommoli masalalari

ilmiy jihatdan o'rganishga va ushbu muammolarni yechimni topish va ilmiy nazariy va amaliy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish hozirgi kunda muxim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. O.A. Shodiyeva "To'garaklarni tashkil etish" o'quv qo'llanma. SamDU., 2023.
2. R.N.Muxitdinova. "Xorshunoslik". Toshkent. DTPU. 2008-yil
3. Sh.Ro'ziyev "Xorshunoslik"
4. B. V. Shomahmudova "Xor lug'ati" Toshkent-2009 yil
5. B.V.Shomahmudova "Xor fanlarini o'qitish metodikasi" Toshkent-2012 yil